

**O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXSIY IDENTIKLIK VA IJTIMOIIY
MOSLASHUV**

*“University of Business and Science” Pedagogika va psixologiya kafedrası
kata o'qituvchisi (PhD), **Shermatova Manzura***

*“University of Business and Science” Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabasi **Pulatxanova Gulnoza***

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o'smirlik davridagi shaxsiy identiklik va ijtimoiy moslashuv jarayonlari psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. O'smirlikning o'ziga xos xususiyatlari, identiklikni shakllanishi, moslashuvda uchraydigan muammolar, shuningdek, zamonaviy psixokorreksion usullar yoritilgan. Mavzu bo'yicha nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, identiklik, ijtimoiy moslashuv, psixologik rivojlanish, psixokorreksiya, zamonaviy yondashuvlar.

**ЛИЧНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И СОЦИАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ В
ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

*Старший преподаватель кафедры педагогики и психологии (PhD) “University
of Business and Science” **Шерматова Манзура***

*Студентка направления начального образования “University of
Business and Science” **Пulatxанова Гульноза***

АННОТАЦИЯ: В статье анализируются процессы личностной идентичности и социальной адаптации в подростковом возрасте с психологической точки зрения. Освещены особенности подросткового возраста, формирование идентичности, проблемы адаптации, а также современные психокоррекционные методы. По данной теме даны теоретические взгляды и практические рекомендации.

Ключевые слова: *Подростковый возраст, идентичность, социальная адаптация, психологическое развитие, психокоррекция, современные подходы*

**PERSONAL IDENTITY AND SOCIAL ADAPTATION DURING
ADOLESCENCE**

Senior Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology (PhD),

“University of Business and Science” Shermatova Manzura

*Student of Primary Education program, “University of Business and
Science” Pulatxanova Gulnoza*

ABSTRACT: *This article analyzes the processes of personal identity and social adaptation in adolescence from a psychological perspective. The specific features of adolescence, the formation of identity, problems encountered in adaptation, as well as modern psychocorrectional methods are highlighted. Theoretical views and practical recommendations on the topic are given.*

Keywords: *Adolescence, identity, social adaptation, psychological development, psychocorrection, modern approaches.*

KIRISH. Bugungi kunda yoshlar, ayniqsa o'smirlik davridagilarning ruhiy holati, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga moslashuvi psixologiya fanining eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. O'smirlik davri inson hayotida muhim o'tish davri bo'lib, unda shaxsiy identiklikni shakllantirish va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari kechadi. Shu bois, ushbu davr psixologiyasini chuqur o'rganish amaliy psixologiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy identiklik insonning o'zini anglash, hayotda o'z o'rnini topish va ijtimoiy muhitda moslashish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'smirlik va ilk yosh davrida bu jarayon faollashadi. Zamonaviy psixologiyada identiklik nazariyasi muhim mavzulardan biri hisoblanadi.[1]

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan

birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sisholdinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik — bolalikdan kattalikka o'tish davri bolib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bolib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bolishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5-7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo'yiga qarab o'sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi. [2]

O'smirlik yoshining klassik tadqiqotiga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligining guvoxi bo'lamiz. O'smirlik yoshiga xos yorqin Psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L.S.Vigotskiy (1930) tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo'lib, unda mazkur yosh simptomatikasi, o'smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o'zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi berilgan. L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyotning o'zaro masalasini ko'rib chiqdi. Bunda u quyidagi vaziyatni keltirib chiqardi. Bolaga psixik hayotidagi qiyin shakllar muloqot jarayonida shakllanadi, demak muloqot nisbatan tizimlashtirilgan shaklda – o'qitishda rivojlanishni shakllantiradi, yangi psixik ma'lumotlarni vujudga keltiradi, oliy psixik funktsiya takomillashtiriladi. Ta'lim psixikaning shakllanishida muhim rol egallab, uning shakllari esa rivojlanish jarayonida o'zgaradi.

Psixologiyada identiklik bu insonning o'zini yaxlit va doimiy shaxs sifatida anglashidir. E. Erikson – identiklik nazariyasining asoschilaridan biri. Unga ko'ra,

identiklikning shakllanishi ayniqsa o'smirlik davrida muhim bo'ladi. Bu bosqichda shaxs o'zligini topish (identiklik) yoki rol chalkashligi (rol confusion) holatlariga duch keladi. E. Erikson identiklikni psixosotsial rivojlanishning asosiy bosqichi sifatida ko'radi. Unga ko'ra, o'smirlikda shaxs o'zligini anglashga harakat qiladi.

Psixologiyada identiklik (lotincha identitas – “o'zlik”, “o'xshashlik”) bu shaxsning o'zini biror doimiy, yaxlit, mantiqan izchil individ sifatida anglashidir. Identiklik o'z-o'zini tanib olish, ijtimoiy guruhlarda o'z o'rnini topish va o'z hayot yo'lini belgilashda asosiy rol o'ynaydi.

J. Marcia – Erikson nazariyasini rivojlantirib, identiklikning to'rt tipini taklif qilgan:

1. Yakunlangan identiklik (Identity Achievement): shaxs izlanish olib borib, o'z yo'lini tanlagan.
2. Identiklik inqirozi (Moratorium): izlanish bosqichida, lekin yakuniy qarorga kelmagan.
3. Qabul qilingan identiklik (Foreclosure): izlanmasdan, boshqalarning fikrini qabul qilgan.
4. Diffuz identiklik (Identity Diffusion): na izlanish bor, na qaror mavjud.

Identiklikni bir necha turlari mavjud bo'lib ular:

Shaxsiy identiklik – bu insonning “men kimman?” degan savolga javob topish jarayonidir. U shaxsning o'zini qanday anglashini, boshqalar bilan farqlashini, ijtimoiy rolini, e'tiqodini, qadriyatlarini, maqsad va kelajak rejasini belgilashiga asos bo'ladi. [2]

Ijtimoiy identiklik – o'zini muayyan guruh (millat, din, kasb, jins) vakili deb his qilish.

Madaniy identiklik – o'z madaniy qadriyatlari va an'analariga asoslangan o'zlik hissi.

O'smirlar o'zlarini anglash, qiziqishlarini aniqlash, kelajak kasbini tanlash kabi masalalar bilan shug'ullana boshlaydilar. Bu davrda shaxsiy identiklikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari, shaxsiy tajriba va madaniy muhit kabi omillar ta'sir

qiladi.

Oila – birinchi ijtimoiy guruh bo'lib, qadriyat va e'tiqodlarni uzatadi. Shaxsning dastlabki identiklik tajribalari oilada shakllanadi.

Do'stlar va tengdoshlar – ijtimoiy taqqoslash orqali o'zini anglashni shakllantiradi. Do'stlar va tengdoshlar bilan muloqot identiklikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi

Madaniyat: Madaniy qadriyatlar va an'analar identiklikni shakllantirishda asosiy omillardan biridir.

Ta'lim tizimi – dunyoqarashni kengaytiradi, kasb tanlashga ta'sir qiladi.

Ommaviy axborot vositalari va internet – turli identiklik modellarini taqdim etadi.

Shaxsiy tajriba – muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar orqali o'zini anglash chuqurlashadi. Insonning hayotiy tajribalari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklari identiklikni rivojlantiradi.[3]

Identiklik inqirozi insonning o'zini anglay olmasligi, hayotiy yo'lini topolmasligi bilan bog'liq. Bunday holat o'smirlikda ko'proq uchraydi. Identiklik inqirozi – bu inson o'zini anglashda chalkashlikka tushgan holatdir. Bu holat ko'pincha o'smirlik davrida yuzaga keladi va insonning kimligini, hayotdagi o'rnini aniqlay olmasligi bilan tavsiflanadi. Bunday inqirozdan chiqish uchun psixologik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy tajriba muhim ahamiyatga ega.

Identiklik inqirozining belgilari: o'z rolini aniqlay olmaslik, hayotiy maqsadsizlik, o'ziga nisbatan ishonchsizlik, ijtimoiy yakkalanish.

Psixologik yordam va ijobiy ijtimoiy muhit bu inqirozdan chiqishga yordam beradi.

O'smirlik – bu bolalikdan kattalikka o'tish bosqichi bo'lib, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bu davrda shaxsning mustaqil fikrlashi, o'zligini anglash va o'z o'rnini topishga bo'lgan intilishi kuchayadi. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, aynan o'smirlik bosqichida identiklik va rolga aniqlik masalalari hal qilinadi [4].

Ijtimoiy moslashuvda uchraydigan psixologik muammolar ijtimoiy

moslashuv – individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni odatda, individning o'z faoliyatini va o'zini o'rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o'zgartirish davrlari bilan bog'laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muxitga faol ta'sir etish ko'rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko'rinishi bo'ladi. Ijtimoiy moslashuv shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir. Ijtimoiy moslashuvning samaradorligi ko'p jihatdan individ o'zini va o'zining ijtimoiy aloqalarini qanchalik o'xshash (adekvat) anglashiga bog'liq. O'zi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurning noto'g'riligi yoki yetarlicha emasligi ijtimoiy moslashuvning buzilishiga olib keladi, bu holat (voqelik) ning eng ayanchli ko'rinishi autizm individning atrofdagilar bilan muloqot qilishdan qochib, o'zining ichki kechinmalari dunyosiga g'arq bo'lishidir. Ijtimoiy moslashuv muammosi jahon psixologiyasida psixoanaliz, autizm, deprivatsiya kabi ilmiy yo'nalishlarda tadqiq etib kelinadi. Bunda asosiy e'tibor moslashuvning buzilishiga (ruhiy sohadagi buzilishlar, begonalashish, apatiya, alkogolizm, giyohvandlik va b.) va uni tuzatish (korreksiyalash) ning psixoterapevtik uslublariga, autotrening, sotsiotrening vositalariga yo'naltiriladi. Muhitga shaxsning kirishib ketishi uning xulqi, faoliyati, muomalasi orqali sodir bo'lsa moslashishning mukammalligi vujudga keladi. Shaxsning katta yoki kichik guruxlar muhitiga moslashishi ijtimoiy moslashuv samaradorligini oshiradi, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

O'smirlar ko'pincha o'z tengdoshlari bilan munosabatlarda muammolarga duch keladilar. Ijtimoiy bosim, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, o'qishdagi qiyinchiliklar va oiladagi ziddiyatlar moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. Bu holatlar ayrim hollarda depressiya, xavotir va hattoki tajovuzkorlik kabi holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda farzand tarbiyasi va yoshlardagi agressiv xulq atvor normalarining nomoyon bo'lishida oilalardagi psixologik muhitning nosog'lomligi, ota-onalarning farzand tarbiyasini ikkinchi o'ringa qo'yishi va noto'liq oilalar sonining ortib borayotgani sabab bo'lmoqda. Bu esa ta'lim muassasalari va

mahallalarda yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi yoshlar balki ularning ota-onalari bilan ham psixologik pedagogik bilimlar targ'ibotini olib borishni taqazo etadi.

Olib borgan tadqiqotimiz jarayonida o'smirlarning ijtimoiy moslashuvida o'zaro munosabatlarning ahamiyatini o'rganishda biz Rene Xill metodikasidan foydalandik. Tadqiqotda foydalanilgan Rene Xill metodikasi kichik maktab yoshidagi bolalarda o'zaro munosbatni shakllanishini o'rganishda qo'llanilgan, biz esa o'smirlarning ijtimoiy moslashuvini o'rganishda foydalandik.[5]

Quyidagi jadvalda Rene Xill metodikasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

№	Ishtirokchilar	Oila iqlimi	Muloqot darajasi	Empatiya darajasi	Moslashuv ballari	Moslashuv darajasi
1	1-o'quvchi	Iliq	Yaxshi	O'rta	75	Yuqori
2	2-o'quvchi	Sovuqqon	Past	Past	48	Past
3	3-o'quvchi	Iliq	Yuqori	Yuqori	82	Juda yuqori
4	4-o'quvchi	Mo'tadil	O'rta	O'rta	65	O'rta
5	5-o'quvchi	Sovuqqon	Past	O'rta	50	Past
6	6-o'quvchi	Iliq	Yuqori	Yuqori	85	Juda yuqori
7	7-o'quvchi	Mo'tadil	O'rta	O'rta	63	O'rta
8	8-o'quvchi	Iliq	Yaxshi	Yuqori	78	Yuqori

Moslashuv ballari va darajalar:

past darajadagi moslashuv 0-49 ball;

o'rta darajadagi moslashuv 50-69 ball;

yuqori va juda yuqori darajadagi moslashuv 70-100 ball.

Oila, maktab va jamiyatning roli, o'smirlarning sog'lom psixologik rivojlanishi uchun oila muhitining iliqligi, maktabdagi psixologik xizmatning samaradorligi va jamiyatdagi ijobiy ijtimoiy muhit muhim omillardandir. Ota-onalar bilan ochiq muloqot, maktab psixologlari bilan doimiy ishlash va jamiyatdagi konstruktiv faoliyatlarda ishtirok etish o'smirning ijtimoiylashuvini yengillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy identiklik inson hayotida muhim psixologik jarayon bo'lib, uning shakllanishi jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuv uchun muhimdir. Psixologlar, pedagoglar va ota-onalar ushbu jarayonga ongli yondashib, yoshlarning o'zligini shakllantirishga ko'maklashishlari kerak, o'smirlik davrida shaxsiy identiklik va ijtimoiy moslashuv muammolari har bir jamiyat uchun muhim masala hisoblanadi. Oila, maktab va psixologlarning hamkorligi, zamonaviy

psixologik yondashuvlardan foydalanish o'smirlarning sog'lom shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shu bois, har bir pedagog va psixolog bu davr xususiyatlarini chuqur o'rganib, mos strategiyalar ishlab chiqishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erikson E. Identichnost: yunost i krizis. – M.: Progress, 1996.[1]
2. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – T.: O'zbekiston, 2020. [2]
3. Musurmonova O. Yosh davrlari psixologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2019. [3]
4. Murodova M. Psixologiya asoslari. – T.: Iqbol, 2021. [4]
5. Nurmatova S. Bolalar va o'smirlar psixologiyasi. – T.: Ilm ziyo, 2022. [5]
6. Marcia J. Development and validation of ego-identity status. Journal of Personality and Social Psychology, 1966.